

**TURK TILIDA SO‘Z YASASH IMKONIYATLARI**

*Sarvara Toshaliyeva*

*katta o‘qituvchi, Xorijiy tillar kafedrası, O‘zJOKU*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada turk tilining so‘z yasash imkoniyatlari, kompozitsiya, reduplikatsiya va boshqa usullar, so‘z yasovchi qo‘shimchalar va ularning o‘rganilishi haqida so‘z yuritiladi. So‘z yasash usullarining nomlanishi bilan bog‘liq fikrlar bildiriladi.*

**Tayanch so‘z va iboralar:** *so‘z yasash usullari, kontaminasiya, reduplikasiya.*

**Аннотация.** *В данной статье идет речь о возможностях словообразования в турецком языке, композиции, редупликации и других методах, словообразовательных суффиксах и их изучении. Высказываются мнения в связи с наименованием методов словообразования.*

**Опорные слова и выражения:** *способы словообразования, контаминация, редупликация.*

**Abstract:** *This article deals with the possibilities of word formation in the Turkish language, composition, reduplication and other methods, word-forming suffixes and their study. Opinions are expressed in connection with the name of the methods of word formation.*

**Keywords and expressions:** *methods of word formation, contamination, reduplication.*

Tilning lug‘at boyligi doim o‘zgarib boradi. Turli sabablarga ko‘ra doim yangi so‘z birliklariga ehtiyoj seziladi va turli yo‘llar bilan yangi so‘zlar hosil bo‘ladi. Tobora rivojlanib borayotgan millatlararo madaniy aloqalar, yangi texnologiyalar har qanday tilda yangi so‘zlarni yaratish ehtiyojini keltirib chiqaradi. Tilga o‘zlashma so‘zlarning kamroq kirishi ham o‘sha tildagi so‘z

yasash imkoniyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Tilning sofligini saqlab qolish uchun milliy so‘z yasash usullaridan keng foydalanish lozim .

Turkiyada o‘tgan asr boshlarida turk tilining sofligini ta‘minlash maqsadida til inqilobi boshlangan bo‘lib, o‘sha davrlarda ziyolilar juda ko‘p yangi, turkcha so‘zlarni muomalaga kiritishga qaratilgan ishlarni amalga oshirishgan. Arabcha va forsha so‘zlarning o‘rniga turk tili imkoniyatlaridan kelib chiqib, yangi so‘zlar taklif qilingan bo‘lib, bu so‘zlarning juda ko‘pchiligi hozirgi turk tili lug‘atidan o‘rin olgan. Komp'yuter-bilgisayar, samolyot –uçak.

Hozirgi turk adabiy tilida ham yangi so‘zlarning yasaliş usullari bir qancha bo‘lib, bu usullar tilshunos olimlar tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarga mavzu bo‘lib kelmoqda. Turkiy tillarning barchasiga xos bo‘lgan yasovchi qo‘shimchalar orqali yasalgan so‘zlar albatta ko‘pchilikni tashkil etadi. Turk tilining asosiy qoidalaridan biri yangi ma‘no va yangi tushunchani ifodalash uchun o‘zakka qo‘shimcha qo‘shish orqali so‘z yasashdir. Bu so‘z yasalişining eng sarmahsul yo‘li hisoblanadi. Turk tilida mahsuldor va sarmahsul bo‘lmagan affikslar mavjud. Turk tilshunosi Muharrem Ergin jami 127 yasovchi qo‘shimchani keltirib, ularning ma‘no jihatlarini izohlab bergan.

*-li, -siz, -lik, -ce* va boshqalar sarmahsul qo‘shimchalar hisoblansa, *-ak, -men, -cil* affikslari va boshqa tillardan o‘zlashtirilib, turkchallashtirilgan *-sel, -tay, -ev* affikslariunchalik mahsuldor emas. Turk tilshunosligida so‘z yasovchi qo‘shimchalar 4 guruhga bo‘lib o‘rganiladi.

1. Otdan ot yasovchi qo‘shimchalar: *yama-cı* (yamoqchi), *iş-çi-lik* (ishchilik), *avukat-lık* (advokatlik) kabi.

2. Otdan fe‘l yasovchi qo‘shimchalar: *iz-le-mek* (orqasidan bormoq, ta‘qib etmoq, tomosha qilmoq), *bıçak-la-mak* (pichoqlamoq), *hazır-la-mak* (tayyorlamoq) kabi.

3. Fe‘ldan ot yasovchi qo‘shimchalar: *sat-ıcı* (sotuvchi), *sus-tur-ucu* (jim qiluvchi), *uyu-ş-tur-ucu* (giyohvandlik moddasi, narkotik, narkoz) kabi.

4. Fe‘ldan fe‘l yasovchi qo‘shimchalar: *sez-dir-mek* (s‘ezdirmoq), *gör-üş-tür-mek* (ko‘rishtirmoq, uchrashtirmoq) kabi.

Turk tilida kompozisiya yo‘li bilan hosil qilingan leksemalar ham juda ko‘p. Qo‘shma so‘zlar bir qancha andozalarda yasaladi:

- 1) aniqlovchi+aniqlanmish (anayasa, anayol, büyükanne )
- 2) Qaratqich+qaralmish ( atasözü, altyapı, işadımı )
- 3) Ega+kesim (hünkarbeğendi, gözükara, imambayıldı )
- 4) To‘ldiruvchi+kesim( kardelen, yurtsever, buzkıran )

Takror so‘zlar ma‘noni kuchaytirishga xizmat qiluvchi birliklar hisoblanadi. Yaqin ma‘noli, zid ma‘noli so‘zlarning yoki bir so‘zning takrorlanishi turkiy tillarga xos xususiyatlardan biridir. Takror so‘zlarning qoliplashishi natijasida umuman boshqa ma‘noni ifodalovchi yangi so‘z birliklari yuzaga keladi. Turk tilida ham reduplikasiya yo‘li bilan yangi so‘z yasalishi kuzatiladi. Ayrim kopulyativ leksemalarning yangi so‘z leksemalar ham yasashi mumkinligi e‘tirof etilgan: O‘zbek tilidagi ququ(qush nomi), paqpaq(bolalar o‘yini), xola-xola(o‘yin nomi), manman v.b. shunga o‘xshash misollar turk tilida ham mavjud.

*Anne-ona, anneanne-buvi; lapa-bo‘tqa, lapa lapa- pag‘a-pag‘a; hemendarrov, hemen hemen-deyarli;*

Kuzatishimizcha, bu hodisa turli adabiyotlarda turlicha nomlangan bo‘lib, bunday birliklarga nisbatan qo‘llangan lingvistik atamalar bir xil emas: «juft so‘zlar», «reduplikatlar», «takrorlar», «takroriy birikmalar», «qo‘shma so‘zlar», «qo‘sh asoslar», «analitik shakllar», «leksema shakllar» va sh.k. Turk tili grammatikasida esa bunday leksemalar «ikileme», «tekrar», «yineleme», «koşak» atamaları bilan nomlanganligi ma‘lum. Yangi ma‘noni anglatuvchi bunday takror so‘zlarni ham so‘z yasashning bir turi sifatida baholash mumkin.

Turk tilida oxirgi davrlarda so‘z yasashning yangi usullaridan keng foydanilmoqda. Ikki so‘zning birinchi bo‘g‘inlari birlashtirilib, yangi so‘z hosil qilinmoqda. Dunyo tilshunosligida “blend” yoki “kontaminatsiya” sifatida ma‘lum bo‘lgan bu usulga tadqiqotchi Mustafa Shenel “kes+kopyala+yapıştır” deb nom beradi. Ikki so‘zning birinchi bo‘g‘inlarini yoki buyruq maylidagi ikki fe‘lni birlashuvidan hosil bo‘lgan so‘zlar avvaldan ham turk tili lug‘atida mavjud

bo‘lgan. Masalan: *çekyat, yapboz, gelgit* kabi so‘zlar Turk Dil Kurumi lug‘atidan joy olgan. Kishi nomlari yoki tashkilot nomlarini yasashda ham bu usuldan foydalanilgan. Turk tilidagi Nursel ismi ota-ona ismlaridan yasalgan. Nuri va Selma ismlarining birinchi bo‘g‘inlaridan tashkil topgan. So‘nggi paytlarda turk tilida juda keng ishlatilayotgan “kanka” so‘zi ham mana shu usulda yasalgan bo‘lib, kan kardeşi birikuvining birinchi bo‘g‘inlaridan tashkil topgan. Akıllı bilet birikmasidan esa akbil leksemasi hosil qilingan. Bunday so‘zlar asosan fe'l+fe'l, fe'l+ot, ot+ot shaklida yasalgan.

Xulosa qilib aytganda, turk tilida so‘z yasash imkoniyatlari juda keng. Turkcha o‘z imkoniyatlari doirasida tobora o‘sib, rivojlanib bormoqda. Qo‘shimchalar yordamida, so‘zlarning birlashuvi orqali, takror so‘zlarning qoliplashib, yangi ma'noni ifodalashi natijasida, kontaminasiya usulida yangi so‘zlar yuzaga kelmoqda. Turkiy tillarning barchasida bo‘lganidek, turk tilida ham so‘z yasovchi qo‘shimchalar juda ko‘p va ular ma'lum bir qonuniyatga asoslanadi. Qo‘shimcha yordamida so‘z yasash eng sermahsul yo‘l hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Türk Dil Kurumu, Türkçe Sözlük, TDK Yayınları, Ankara, 2005
2. Banguoğlu, Tahsin, Türkçenin Grameri, Türk Tarih Kurumu Basım Evi, Ankara, 1990
3. Muharrem Ergin, Üniversiteler için Turk Dili, İstanbul, 1994
4. Mustafa Şenel, Kes-kopyala-yapıştır; yeni kelime türet Türk Dili Araştırmaları Yıllığı - Belleten, Jan 2010
5. Yasemin Çürük, Sözcük Türetme Yöntemi Olarak İkileme, International Journal of Languages' Education and Teaching, Volume 6, Issue 3, September 2018, p. 499-503